


IX. ISTE'MOL BOZORI


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 18 165,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 10,2 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 3 780,4 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14 385,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 40,1 %, Urgut tumani 9,5 %, Kattaqo'rg'on shahri 6,5 %, Samarqand tumani 5,7 %, Pastdarg'om tumani 5,3 %, Bulung'ur tumani 4,2 %, Kattaqo'rg'on tumani 4,1 %, Jomboy tumani 3,8 %, Payariq tumani 3,6 % va Toyloq tumani 3,5 % chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da




Viloyatda aholi jon boshiga 2022- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 471,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 % ga ko'paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (12 856,6 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri(12 685,0 ming so'm) va Bulung'ur tumanlarida (3 943,7 ming so'm) kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | <i>Hajmi, ming soʻmda</i> | <i>Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i> |
|-------------------------|-------------------------------|--|
| Viloyat boʻyicha | 4 471,0 | 107,9 |
| Samarqand sh. | 12 856,6 | 107,6 |
| Kattaqoʻrgʻon sh. | 12 685,0 | 105,0 |
| tumanlar: | | |
| Bulungʻur | 3 943,7 | 108,5 |
| Jomboy | 3 816,0 | 108,3 |
| Ishtixon | 2 107,5 | 108,7 |
| Kattaqoʻrgʻon | 2 636,2 | 107,1 |
| Narpay | 2 271,9 | 110,1 |
| Nurobod | 2 065,9 | 103,7 |
| Oqdaryo | 2 668,6 | 109,4 |
| Payariq | 2 457,3 | 108,3 |
| Pastdargʻom | 2 600,8 | 109,3 |
| Paxtachi | 2 418,3 | 110,6 |
| Samarqand | 3 905,2 | 109,8 |
| Urgut | 3 229,4 | 109,8 |
| Toyloq | 2 951,0 | 106,3 |
| Qoʻshrabot | 2 250,5 | 103,7 |

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, oʻtgan yilga nisbatan yuqori oʻsish surʼati Urgut, Samarqand, Paxtachi va Narpay tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur‘atlari, % da





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarining hajmi 3 780,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 20,8 foizini tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 14 385,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 9,2 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,2 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da

2021- yil yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabr



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik


Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

| | Hajmi, mlrd. so'm | 2021- yilga nisbatan, % da | Yakunga nisbatan, % da |
|----------------------|----------------------|----------------------------------|------------------------------|
| Jami | 18 165,6 | 110,2 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| davlat mulki | 1,5 | 163,8 | 0,01 |
| nodavlat mulki | 18 164,1 | 113,7 | 99,99 |

2022- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

| | Hajmi, mlrd. so'm | 2021- yilga nisbatan, % da | Yakunga nisbatan, % da |
|--------------------------------|----------------------|----------------------------------|------------------------------|
| Chakana tovar aylanmasi | 18 165,6 | 110,2 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Yirik korxonalar | 3 780,4 | 113,8 | 20,8 |
| Kichik va mikrofirmalar | 5 463,2 | 112,0 | 30,1 |
| Norasmiy sektor | 8 922,0 | 107,6 | 49,1 |

Chakana savdo tarkibi, % da



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 502,5 mlrd. so'mni yoki 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi.